

**RAQAMLI TA'LIMNING O'QUVCHILARGA PSIXOLOGIK TA'SIRI.****Norqulova O'g'iloy Yo'ldosh qizi***Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika yo'nalishi 1.24-guruh talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli ta'lim jarayonining o'quvchilarga psixologik ta'siri, xususan motivatsiya, diqqat, emotsional holat, o'z-o'zini boshqarish va ijtimoiy muloqot kabi omillarga ta'siri tahlil qilinadi. Raqamli vositalardan foydalanishning ijobiy va salbiy jihatlari solishtiriladi hamda onlayn ta'limning psixologik salomatlikka ta'sir ko'rsatish mexanizmlari ilmiy manbalar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, psixologik ta'sir, motivatsiya, diqqat onlayn ta'lim.

Annotatsion: This article examines the psychological impact of digital education on students, focusing on motivation, attention, emotional state, self-regulation, and social interaction. The study compares the positive and negative aspects of digital learning tools and discusses their psychological implications.

Keywords: digital education, psychological impact, motivation, attention, online learning.

Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimiga chuqur kirib bordi. Onlayn platformalar, mobil ilovalar, virtual laboratoriyalar o'quv jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarning psixologik holatiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur maqolada raqamli ta'limning psixologik ta'siri turli jihatlari bilan tahlil qilinadi. Raqamli ta'limning ijobiy psixologik ta'siri:

Motivatsiyaning ortishi – interaktivlik, gamefikatsiya elementlari va vizuallik o'quvchilarni faol o'rganishga undaydi.

Mustaqil o'rganish ko'nikmalarining rivojlanishi o'quvchi o'z tezligida o'rganadi, bu esa ma'suliyatni mustahkamlaydi. Kreativlikni oshirishi multimedia vositalari ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Salbiy psixologik ta'sirlari: diqqatning susayishi multitasking va chalg'ituvchi omillar diqqatni tarqoqlashtiradi. Texnologiyaga bog'liqlik ko'p ekran vaqti charchoq va stressni kuchaytiradi. Ijtimoiy aloqalarning kamayishi – onlayn muhitda tabiiy muloqot yetishmaydi, bu esa emotsional holatga ta'sir qiladi. Psixologik xavflarni kuchaytiruvchi omillar gadgetlardan me'yordan ortiq foydalanish ota-ona nazoratining yetishmasligi raqamli savodxonlikni patsligi o'quvchining yosh va temperamentiga mos bo'lmagan yuklama.

Raqamli ta'lim o'quvchilar uchun katta imkoniyatlar yaratadi, biroq uning psixologik xavflarini ham e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Sog'lom raqamli muhit yaratish, dars yuklamasini me'yorlash va psixologik qo'llab-quvvatlash choralari ko'rish zarur.



Bizga ma'lumki, hozirgi biz yashab turgan XXI asrning ko'p qirrali zamonaviy texnologiyalari bilan barchamizning kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Bunday sharoitda iqtisodiy soha tarmoqlari bilan bir qatorda boshqa ko'plab sohalar o'z ish faoliyatida ushbu texnologiyalardan unumli foydalanish yo'llarini izlayotganligi bejiz emas albatta. Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha sifatida dunyo miqyosida ta'lim sifatini oshirish va unga yangi raqamli texnologiyalarni kiritish hamda masofaviy ta'limni yuqori bosqichga olib chiqishga doir ishlar amalga oshirilmoqda. Bu kabi ta'lim sohasini rivojlantirishga doir qarorlar va ularni amalga oshirish bilan bog'liq ishlarni yurtimiz yoshlari uchun ham juda muhim ekanligini zamonning o'zi isbotlab turibti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-2021 – yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" da keltirib o'tilgan qator yo'nalishlari doirasining to'rtinchi ya'ni "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari" ning to'rtinchi bandida ham ta'lim va fan sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Chunonchi, kompyuter texnikasi va o'quv -uslubiy qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy- texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish kabi muhim ko'rsatmalar berilgan. Bunga yana shuni qo'shimcha qilish mumkinki, Prezidentimiz tomonidan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha beshta muhim tashabbusni ilgari surildi. Ushbu besh tashabbusning uchinchisi aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan. Shu o'rinda Abdulla Avloniyning tarbiya haqidagi fikrini keltirib o'tmoqchimiz: "Tarbiya – Pedagogika, ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur. Bolaning salomatligi va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlardan saqlab o'sdurmakdir"

Aytib o'tilgan fikrlar zamirida kelib chiqqan holatda o'rta ta'lim maktablarida o'quv jarayonining samaraliligini oshirishda raqamli texnologiyalardan unumli foydalangan holda masofaviy ta'limga joriy etish kun tartibida turgan muhim masalalardan hisoblanadi.

Raqamli ta'lim o'quvchilarning psixologik rivojlanishiga murakkab va ko'p qatlamli ta'sir ko'rsatadi. Uning ijobiy va salbiy jihatlari bir vaqtda mavjud bo'lib, muvozanatli yondashuv zarur. Zamonaviy ta'lim tizimi raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan birga o'quvchilarning ruhiy farovonligini ham ta'minlashi lozim. Ana shundagina raqamli ta'lim yuqori samaradorlik berib, o'quvchilarning intellectual va psixologik rivojiga ijobiy hissa qo'shadi.





Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva, N. Raqamli ta'lim va uning psixologik asoslari.- Toshkent: Fan, 2021
2. Yo'ldoshev, J. Usmonov, S. Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020.
3. Zufarova, M.E ... Umumiy psixologiya – T.: 2016
4. Xaydorov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya – T., 2016

